

KOMPOZITOR N.A.RIMSKIY-KORSAKOV IJOD YO'LI

Ergasheva Nozima Gafarovna  
*Respublika musiqa va san'at kolleji*

Kech o'quvchilik davridan keyin kompozitor ijodida yangi davr - uning iqtidorining yuksalishi boshlanadi. 1879- yilda Gogol povesti bo'yicha "May tuni", 1881—yilda esa "Qor qiz" operalari yozib tugatildi. Ushbu yorqin bahor ertaklari nafis poeziya, muhabbat tuyg'usi va ajoyib sehr bilan yo'g'rilgan bo'lib, kompozitorga ulami "qadimiy butparastlik qoldiqlarini ifodalovchi xalq turmushining marosim taraflari" bilan bog'lash imkoniyatini berdi. 80-yillarda N.A.RimskiyKorsakov o'zining eng yaxshi simfonik.asarlari - "Ertak", "Rus mavzulariga simfoniyetta", fortepiano konserti, "Ispan kaprichchiosi", "Yorqin bayram" konsert uvertyurasi, "Shahrizoda" syuitasini yaratadi. U vafot etgan o'z do'stlari: M.Musorgskiy va A.Borodin asarlarini yozib tugatish hamda tahrir qilishga ko'p vaqt sarllaydi. Bu narsa uning inson va san'atkor sifatida yuksak insonparvarligi, haqiqiy do'stlikka va mas'uliyatga bo'lgan sodiqligidan darak beradi. 1883—yilda, konservatoriyanagi ish bilan bir vaqtida, N.A.Rimskiy-Korsakov Saroy qo'shiq kapellasida dars bera boshlaydi, bu yerda u o'n yildan ortiq xizmat qildi. U katta qiziqish bilan kapellani qayta tashkil qilishga kirishdi, natijada bu jamoa musiqiy ta'lim markazlaridan biriga aylandi. Kapellada dars berishning ijodiy natijalaridan biri garmoniya darsligi bo'ldi, bu darslik P.Chaykovskiyning sh mday darsligi bilan bir qatorda klassik nazariy va pedagogik risolaga aylandi. Bir vaqtning o'zida N.A.Rimskiy-Korsakovning dirijorlik faoliyatni davom etdi: u Rossiyada va chet ellarda (Parijdagi butunjahon ko'rgazmasi va Bryusselda) konsertlar uyushtirdi. Hali 1882—yilning yozidayoq Rimskiy-Korsakovning metsenat M. P. Belyaev bilan tanishuvi sodir bo'ldi, N.A.Rimskiy-Korsakov kelajakda uni "rus musiqasi uchun ulkan ahamiyatga ega bo'lgan ajoyib inson" deb atadi. Mitrofan Petrovich Belyayev - boy o'rmon sanoatchisi va havaskor altchi - rus musiqasining fidokor va ehtirosli muxlisi edi. Uning xonardonida har juma kunla.i kvartet kechalari uyushtirilardi. Ushbu M.Belyayev "kechalari"ga 1883/84—yil qishida "Moguchaya kuchka"ning "eski" a'zolari: A.Borodin, N.A.Rimskiy-Korsakov va ulaming sodiq do'sti Stasov qatnasha boshlashdi. Bu kechalarda, shunindek, peterburglik yosh kompozitorlar, N.A.Rimskiy-Korsakovning o'quvchilari: A.Lyadov va A.GlazunovIar ishtirok etardilar. Belyaev to'garagi shu tariqa vujudga keldi. Yangi rus musiqasining targ'iboti uchun M.Belyaev "Rus simfonik konsertlari" va "Rus kvartet kechalari"ga asos soldi; Leypsig shahrida

musiqa nashriyotining tashkil etilishi konsert ishini rivojlanishiga yordam berdi, keyinchalik u yirik rus nashriyoti firmasiga aylandi. Rus kompozitorlarini rag'batlantirish uchun M.Belyaev har yili topshiriladigan M.Glinka mukofotini ta'sis etdi va eng yaxshi kamer asari uchun tanlovlar uyushtirdi. M.Belyaev iltimosiga ko'ra konsert va nashr ishlariga rahbarlikni N.A.Rimskiy-Korsakov o'z zimmasiga oldi, u amalda “M.Belyaev to'garagining musiqiy boshlig'i”ga aylandi. M.Belyaev to'garagi ko'pda M.Balakirev to'garagi an'analarini davom ettirdi, lekin N.A.Rimskiy-Korsakovning yozishicha, ular va kompozitorlar avlodi o'rtasidagi farqni ta'kidlagan holda, “Rus musiqasi rivojlanishida M.Balakirev to'garagi bo'ron va siquv davriga, M.Belyaev to'garagi xotirjam oldinga yurish davriga mos kelardi; M.Balakirev to'garagi inqilobiy bo'lsa, M.Belyaevniki ilg'or edi... Birinchi to'garakning beshala a'zolari keyinchalik rus musiqa ijodiyotining yirik namoyandalari sifatida tan olindi; ikkinchi to'garak turli tarkibga ega edi: bu yerda yirik kompozitorlik iqtidoriga ega hamda kamroq qobiliyatli insonlar va hatto urnuman musiqa ijod qilmaydigan, masalan Dyutsh kabi dirijorlar yoki N.S.Lavrovga o'xshash ijrochilar bor edi...” Bu davrda yaratilgan so'nggi asar - “Mlada” sehrli operabaleti bo'ldi, u o'zining qadimiy slavyan sujeti va tarixiy udum va marosimlar, shuningdek, fantastik manzaralarni talqin etish imkoniyati bilan kompozitomi qiziqtirib qo'ydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.В. Владимиров., А. Лагутин. Музыкальная литература. М.: Изд. “Музыка” - 1971.
- 2.И. Прохорова. Музыкальная литература зарубежных стран. М.: Изд. “Музыка” - 1986.
- 3.В. Галацкая. Музыкальная литература зарубежных стран. 1-выпуск. М.: Изд. “Музыка” - 2002.